

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR TA‘LIM VAZIRLIGI
OLIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH TADQIQOTLARI MARKAZI**

“TASDIQLAYMAN”
Oliy ta‘limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi direktori
A.J.Xoliqov
“ ” 2025-yil



**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun “Mutaxassislik
fani” dan kirish imtihon
DASTURI**

Toshkent-2025

Ushbu dastur Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi Ilmiy va metodik kengashining 2025-yil ____ -sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish sharoitida talabalarni kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, bo'lajak pedagoglarni ijodkorlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini takomillashtirish, talabalarni innovatsion yondashuvlar asosida tarbiyalashni zamon talablari asosida rivojlantirish, tarbiya jarayonini mediatexnologiyalar vositasida tashkil etishning didaktik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv reja, dastur va adabiyotlarni yaratish tizimini yanada takomillashtirishning xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi, ta'lim tizimini moddiy-texnik bazasi rivojlantirildi. Bo'lajak mutaxassislar uchun oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayoni – pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davri hisoblanadi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta'limning halqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o'zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta'lim tizimiga egadirlar.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, kasbiy innovasion faoliyatga tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish, yangilikka intiluvchan, innovasion faoliyat bilan shug'ullana oladigan yuksak salohiyatli kadrlarni tayyorlash, innovasion faoliyatni takomillashtirish, kasbiy faoliyat yo'nalishlari qamrovini kengaytirish, kasbiy innovasion faoliyatlarni rivojlashtirish hamda moddiy-texnika bazani kengaytirishning me'yoriy huquqiy asoslari yaratilmoqda. "...Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish", "...Salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz pedagog olimlari va amaliyotchilari tomonidan ilmiy asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони.

Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'limda innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etishga oid ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham mehnat bozori va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan hal etishda oliy ta'limda bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan tuzilgan fan dasturlari mazmuni hozirgi zamon innovatsion va pedagogik texnologiyalari yordamida tegishli mutaxassislikka oid amaliy masalalarni yechish bo'yicha o'qitishni maqsad qilib qo'ygan. Bu esa oliy ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Ta'lim sifatini yanada takomillashtirish, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish sifatini ta'minlash, yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash hozirgi paytda davr talabiga aylanib bormoqda.

Ushbu dastur oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, zamonaviy mutaxassislarni kasbiy faoliyatida foydalanish uchun uni o'zlashtirishga qaratilgan. Oliy ta'limdan keyingi ta'limda bo'lgan bosqichlarda orttirilgan bilimlarga tayangan holda oliy ta'lim muassasasida pedagogika fanini yanada chuqurroq egallash va tanlangan kasbiga yo'naltirilgan holatda o'zlashtirishni ko'zda tutadi.

Dastur "13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Malakaviy imtihon dasturi "13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgorlar uchun mo'ljallangan.

ASOSIY QISM.

O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim shakllanishining o'ziga xos jihatlari

Globalashuv sharoitida professional ta'lim shakllanishining o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasida professional ta'limning rivojlanishi. Fanning maqsadi va vazifalari. Professional ta'lim metodikasi, metodologiya, metod tushunchalarning mazmuni. Professional ta'limning mazmuni. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan asosiy tushunchalar mohiyati.

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasining mazmuni, maqsadi va vazifalari

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim nazariyasi va metodologiyasining asosi sifatida. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish. Ta'lim tizimining bosqichlari, turlari. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida kasbiy ta'lim jarayonning mohiyati va tuzilishi. Professional ta'limning asosiy komponentlari – ta'lim mazmuni, o'qitish, tarbiyalash, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar.

O'zbekistonda Respublikasida ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va unda har tomonlama barkamol, malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturi va unda amalga oshiriladigan vazifalar. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarurligi. Mamlakatda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish. Yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash.

Oliy ta'limning umumiy asoslari

O'qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O'qitishning psixologik asoslari. O'quv faoliyatining tuzilishi. O'quv faoliyatini shakllantirish. O'zlashtirish jarayoni. O'zlashtirish darajasi. Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha berish. Darsga bo'lgan talablar haqida. An'anaviy va no'an'anaviy darslarni tashkil etish uslubiyoti. Dars jarayonida talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilib borish. Dars turlari va ularning tuzilishi.

Ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini tashkil qilish shart – sharoitlari, tamoyillari va usullari

Boshqaruv faoliyatining ilmiy asoslari, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish tamoyillari, usullari va vositalarini o'rganishi. O'qituvchi-pedagogning xususiy fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalash, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish, amaliy mashg'ulot jarayonida ta'lim oluvchining nazariy bilimlarini puxta o'zlashtirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarga erishuvini ta'minlashda boshqaruvning roli.

Tarbiyaning kelib chiqishi

Ijtimoiy tuzumlarda ta'lim-tarbiya va uning mazmuni. Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar. Jahon pedagogika fani rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk pedagoglarning ijtimoiy pedagogik faoliyatlari va pedagogik qarashlari.

Ta'lim - tarbiyaning nazariy asoslari

Ta'lim turlari, shartlari va mexanizmlari. O'quv faoliyatining psixologik mohiyati. O'quv faoliyatining besh elementi. O'qish motivlari. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari. Ta'limning noan'anaviy usullari. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir nazariyalar. Mustakil tafakkurni rivojlantirish. Pedagogik texnologiyalar. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish. O'quv faoliyatini boshqarish. Tarbiya maqsadlari, usullari va yondashuvlari. Rivojlantiruvchi ta'lim. Xulq-atvor va odatni shakllantirish - shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida.

Shaxs shakllanishining umumiy qonuniyatlari

Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Biologik omilning shaxs taraqqiyotidagi o'рни. Ijtimoiy omil va uning shaxs shakllanishiga ta'siri. Maqsadga muvofiq olib bariladigan ta'lim-tarbiya. O'z-o'zini tarbiyalash. Shaxs shakllanishida qarama-qarshiliklarni o'рни. Ichki va tashqi qarama-qarshilik.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi

Rivojlangan davlatlar Germaniya, Angliya, Fransiyada ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. AQSh da ta'lim tizimining tuzilishi. Ta'lim bosqichlari. Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi, bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimi. Bu davlatlardagi ta'lim tizimining yutuqlari va kamchiliklari. Rivojlangan xorijiy davlatlar va Mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro uyg'unlik masalalari.

Oliy ta'limda keys texnologiyalaridan foydalanish. Loyiha metodi, maqsad va vazifalari

Keys-stadi metodini kelib chiqish tarixi. Keys texnologiyasining tuzilishi, turlari. Keys texnologiyasining mazmuni, maqsadi. O'quv jarayonida keyslarni ishlab chiqish va uning asosida talabalarning faoliyatini tashkil etish mahorati. Chet el ta'lim tizimida keys texnologiyalari. Keys texnologiyasining dolzarbligi va ahamiyati.

Loyiha metodi, uning mazmuni va maqsadi. Loyiyaning turlari. Loyiha metodini ishlab chiqish qoidalari. Oliy ta'lim tizimida loyiha metodidan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiy ta'lim tizimida loyiha texnologiyalari. O'quv jarayonida loyiha metodini qo'llash mahorati. Chet el ta'lim tizimida loyiha metodidan foydalanish amaliyoti.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish uslubiyoti

Professional ta'limi metodlarining umumiy tavsifnomasi. "Metod", "Metodika", "Metodologiya" tushunchalari. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi. O'qitish usulining ta'lim texnologiyasidagi o'рни va roli. Suhbat, og'zaki, mashq,

ko'rgazmalilik, ma'ruza, hikoya, videousul, kitob bilan ishlash, loyihalar usuli, ishbiarmon o'yinlar, bahs, munozara, muammoli usul, testlar usuli, loyihalar usuli. Ta'lim oluvchilarning o'quv, bilim faoliyatini tashkil etish. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish. Ta'lim mezonlarini tanlash.

Pedagogik boshqaruv va pedagogning mahorati

Pedagoglar kasbiy mahoratining asosiy komponentlari. O'quvchilar guruhlarida o'zaro munosabatlarni boshqarish. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish. O'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo'llari. O'quvchilar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati. Talabalar guruhiy faoliyatini tashkil etish. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar. Ta'lim jarayonini boshqarishda guruhning va o'quvchi-talabalarning xususiyatlarini hisobga olish.

Professional ta'lim muassasida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti

Professional ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Tarbiyaviy ishlar nazariyasi. Buyuk allomalarni tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari. Tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, talab va takliflarini hisobga olib tashkil etish. Tarbiyaning murakkab jarayon ekanligi va uning milliy g'oya, milliy mafkuraga bog'liqligi. O'quv yurti, oila, mahalla va jamoatchilikning birgalikdagi tarbiyaviy ishlarini takomillashtirish vazifalari. Professional ta'lim muassasasi – barkamol avlodni tarbiyalash tizimining bosh bo'g'ini. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari. Odob-axloq asoslari. Talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashning vazifalari.

Kasb ta'limi jarayonida turli pedagogik uslublarni qo'llash

Hozirgi zamon o'qitish vositalarining yaratilishi, tavsifnomasi. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari. Ta'limiy fikrlashni rivojlantirish. An'anaviy va noan'anaviy dars berish uslublari. Amerikacha va inglizcha munozara. Kichik guruhlarga bo'lib ishlash, debatlar, bahs munozaralarni tashkil etish usullari. Darslarni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish uslubi. Guruhlarni juftlik yoki kichik guruhlarga bo'lib dars o'tishi uslubi. Dars jarayonida modellashtiruvchi o'yinlarni qo'llash. Modellashtiruvchi o'yin usulining afzalliklari.

Tarbiya nazariyasi

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Barkamol shaxsni shakllanishida tarbiya usullari va turlarining ahamiyati. Tarbiya nazariyasi. Buyuk allomalarning tarbiya sohasidagi pedagogik fikrlari, tajribalari. Tarbiya metodlari. O'qituvchi-pedagog ijodiy faoliyat egasi. Tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, imkoniyatlari, talab va takliflarini hisobga olib tashkil etish. Tarbiyalanuvchilarni milliy g'oya, milliy mafkura ruxida tarbiyalash, vijdon va uni tarbiyalash, mehnat tarbiyasi, aql tarbiyasi, erkin fikrlash ruxida tarbiyalash, odob-axloq asoslari. Tarbiya metodlarini optimal tanlash va samarali qo'llash shartlari. Tarbiya metodlarini takomillashtirish.

Ta'limning zamonaviy tashkiliy shakllari

Ta'lim shakllarining tarixan paydo bo'lishi, dars-ta'limning asosiy shakli.

Darsga qo'yilgan asosiy talablar, dars samaradorligini oshirish omillari. Dars turlari. Ma'ruza va seminar darslari. Ekskursiya. Laboratoriya. Takrorlash va umumlashtirish darslari. Ta'limni tashkil etishning shakllarini tanlash usul va uslublari. O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishini tashkil etishning uslublari. Kurs ishi, ilmiy doklad-mustaqil izlanishning asosiy shaklidir.

Kasb ta'limida ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar

Oliy ta'limni tashkil etish shakllari. Ma'ruza va unga qo'yiladigan asosiy talablar. Ma'ruzalarning turlari. Kirish ma'ruzasi, yakunlovchi ma'ruza, obzorli ma'ruza. Ma'ruzaning funksiyalari, ma'ruzada real faktlar ma'lumotlarning o'rnini. Ma'ruzani bayon qilish uslublari. Ma'ruza matnini tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar. Ma'ruzada induktiv va deduktiv uslublarni qo'llashning ahamiyati. Ma'ruza jarayonida pedagogning kasbiy mahorati.

Ta'lim muassasasini boshqarish

Pedagogik jamoa – o'quv muassasi boshqarishning ob'ekti. Pedagogik boshqarish tushunchasi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish. Pedagogik faoliyatni faollashtirish. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili. Rahbar va uning shaxsi: ma'naviy yetukligi, intizom va mehnatga bo'lgan munosabati, bilim darajasi, tashkilotchilik qobiliyati, boshqarish samaradorligini tashkil qila olish qobiliyati. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch. Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'naltirilganligi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing. Ta'lim tizimini boshqarish strukturasi.

Ta'lim nazariyasi. Ta'lim metodlari. Ta'lim tamoyillari

Didaktika-pedagogikaning ta'lim nazariyasi va amaliyoti asoslarini o'rgatuvchi bo'lim. Mutaxassislar tayyorlash milliy dasturida ta'limga yangicha yondashish. Ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish g'oyasi. Ta'limning jarayonliligi. Ta'lim metodi, ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liqligi. Metodlarni o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyalariga qarab tanlash. Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlarini ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liqligi. Ta'lim vositalari. Didaktik o'yinlar.

O'z-o'zini boshqarish pedagogikasi

O'z-o'zini boshqarish va tarbiyalash axloqiy sifatlardan biri ekanligi. O'z-o'zini boshqarishning mutaxassis shaxsini shakllantirishdagi o'rnini. Irodaviy sifatlari: o'z-o'zini tuta bilishi va ichki qayg'urishi. Mutaxassis xarakteridagi odatlar: ijodkorlik, xushchaqchalik, madaniyatlilik, xushmuomalalik. Mutaxassis o'z ijodiy faoliyatini boshqarishining yo'nalishlari: o'z-o'zini tanqid, ishbilarmonlik, xayoliy ijodkorlik, tashabbuskorlik, boshlangan ishni nihoyasiga yetkazish va o'z ustida ishlashi. O'z-o'zini boshqarishning ilmiy va pedagogik asoslari.

Ta'lim metodlari

Ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi. Og'zaki metod, kitob bilan ishlash, ko'rgazmali metod, amaliy metod va ularning ta'rifi. O'qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari. Nazariy ta'lim metodlari. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodi. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi. Ishlab chiqarish ta'limi metodi. Mehnat

faoliyatining harakatlarini ko'rsatish metodi. Mashqlar va mustaqil ishlash. Ishlab chiqarishda faollik metodi. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish. Nazariy ta'limda ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini test orqali tekshirish. Ta'lim metodlarini tanlash.

Ta'lim mazmuni

O'zbekistonda ta'limning asosiy mazmuni. Ta'limning davlat ta'lim standarti. Ta'limning barqaror darajasini ta'minlash. O'quv yuklamalarning me'yoriga keltirilishi. Ta'lim oluvchilar bilimini baholash mezonlarining ishlab chiqilishi. O'quv-tarbiya jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlanishi. Bitiruvchilar malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarning belgilanishi. Kadrlarning maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlanishi. Ta'lim mazmuni tuzilmasining makrodarajasi. Umumta'lim va kasbiy tayyorgarlik. Mikrodarajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi.

Kasb ta'limi jarayoni

Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi. Kasb ta'limi jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponent ekanligi. Ilmiy bilimlarni egallash. Muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish. Kasbiy ta'limning tamoyillari. Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o'qitish. Ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni fanda qo'llanilishi. Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalashning ob'ekti va muammolari. Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish. O'quv materialini qabul qilish. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari. Kasb ta'limi jarayonida shaxsiy malakaviy bilimlar olish. Shaxsiy ma'lumot mazmuni. Malakali rivojlanishning sub'ektiv monitoringi. Ta'lim oluvchilarning malakaviy rivojlanishini shaxsiy mo'ljalga olish texnologiyasi. Kasbiy ta'limning samaradorlik mezonlari.

Oilada tarbiya asoslari. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari

Oilada bola tarbiyasi. Oilani mustaxkamlash to'g'risidagi Davlat va xukumat g'amxo'rligi. Buyuk mutafakkirlar oila tarbiyasi xaqida. Oila tarbiyasida milliy an'analar va umuminsoniy kadriyatlardan foydalanish. Oila-umuminsoniy qadriyat va jamiyatning birlamchi asosi sifatida. Oilada xayot, uning urf-odatlar, an'analari, fuqorolik yetukligi va madaniy munosabatlarning tarbiya jarayoni va natijalariga ta'siri. Oilada bola xayotini uyushtirish: kun tartiboti, majburiyatlari, talablar, bolalarning uy mehnatida ishtirok etishi.

Ta'limni tashkil qilish tizimi

Ta'limni tashkil qilish va uni takomillashtirishning zarurligi. Ta'limni tashkil qilish va uni boshqarish haqida umumiy tushuncha. Boshqaruv funksiyasi va uning mazmuni: motivatsiya (qiziqish uyg'otish) maqsadni belgilash, pedagogik tahlil, rejalashtirish va bajarilishini tashkil etish, nazorat, tartibga solish va o'zgartirishlar kiritish. Pedagogik jarayonni tashkil qilish va boshqarish prinsiplari. Boshqaruvning maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari va usullari.

Pedagogik kengash – o'quv yurtini jamoa bo'lib boshqarishning Oliy organi. O'quv yurtining pedagogik jamoasi va uning faoliyati. O'quv yurtining ichki nazorati: funksiyasi, prinsiplari, shakl va metodlari. Metod birlashmalar, o'quv-metodik kengashlar va ularning faoliyati.

Didaktika – ta'lim nazariyasi

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligi, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, maqsadlari, vazifalari, uslublari. Ta'lim – bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi. Mustaqillikni mustahkamlash ta'limning mohiyati – mazmuni ekanligi.

Ta'lim qonuniyatlari: ta'limning jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, ta'limda ma'lumot berish. Ta'lim qoidalari haqida tushuncha. Ta'limning ilmiyligi. Ta'limda uzviylik va izchillik. Ta'limda onglilik va faollik. Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi. Ta'lim tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish. Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

Ta'lim tizimini boshqarishning ilmiy asoslari va strategiyasi

Ta'lim tizimini boshqarish. Boshqaruvning ko'p ilm talab etishligi. Boshqarishning ilmiy asoslari va umumiy qoidalari. Boshqarish strategiyasi va uning asosiy vazifalari. Ta'lim muassasasining maqsadlarga erishish strategiyasini ishlab chiqish. Strategiyani tatbiq etish va amaliy qo'llash. Ta'lim tarbiya jarayonini baholashning innovatsion yo'nalishlarini o'rganish.

Ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish asoslari

O'quv-tarbiya jarayonini loyihalash va boshqarish vositalari. Loyihalashni iqtisodiy ta'minash va amalga oshirishni tashkil etish masalalari. Davlat ta'lim standartlarining tashkiliy boshqaruv funksiyasi. Ta'lim sifatini boshqarish. O'qitish sifatiga va mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, ularga ta'sir etuvchi omillar. Akkreditatsiya va attestatsiya qilishning ahamiyati va uni tashkil etish asoslari. Tashqi attestatsiya va o'z-o'zini attestatsiyalashning mazmuni. Mustaqil ta'limni boshqarish. Ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish.

Oliy ta'lim jarayoni

Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi. Oliy ta'lim jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponent ekanligi. Ilmiy bilimlarni egallash. Muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish. Ta'limning tamoyillari. Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o'qitish. Ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni fanda qo'llanilishi. Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalashning ob'ekti va muammolari. Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish. O'quv materialini qabul qilish. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari. Oliy ta'lim jarayonida shaxsiy malakaviy bilimlarni olish. Shaxsiy ma'lumot mazmuni. Malakali rivojlanishning sub'ektiv monitoringi. Ta'lim oluvchilarning malakaviy rivojlanishini shaxsiy mo'ljalga olish texnologiyasi.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish uslubiyoti

Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan talablar xaqida. Oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan ma'ruza turlari. Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni. Seminar va amaliy-tajriba ishlar shaklidagi mashg'ulotlar. Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil qilish. Seminar darsinining turlari va funksiyalari.

O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish

O'qitishning asosiy shakllari ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada tashkil etilishi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqtoriga ko'ra avvaldan rejalashtirilishi, o'quv soatlari ajratilishi. Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish, talablarini dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darsdan tashqari talabalar tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarning ahamiyati. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish shakllari, mustaqil ishlarning turlari, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalar vaqtini to'g'ri taqsimlashning ahamiyati.

Tadqiqotlarning ilmiy-texnik va iqtisodiy samaradorligi

Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimidagi hozirgi yo'nalishlari. Xorijiy davlatlardagi bakalavr va magistr larni tayyorlashni boshqarish tajribasi. Xalqaro hamkorlik va bitimlar. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish. Xorijiy oliy ta'lim muassasasida tijorat faoliyati. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarini moliyalashning o'ziga xos jihatlari.

Kasbiy ta'lim jarayonida o'qitishni tashkillashtirishning nazariy asoslari

O'qitish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. O'qitishning psixologik asoslari. O'quvchilarning o'quv faoliyati. O'quv faoliyatini tuzilishi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini shakllantirish. O'zlashtirish jarayoni. O'zlashtirish darajasi. O'qitish maqsadlari. Mutaxassis modeli o'qitish maqsadlarini belgilashning asosi sifatida. O'qitish maqsadlarini belgilash yo'llari. Maqsadlar taksonomiyasi. "Bilimlar iqtisodiyoti", "Kasbiy kompetentlik" fanlari mavzulari bo'yicha o'qitish maqsadlarini belgilash metodikasi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitishda individallashtiruvchi va differensiallashtiruvchi o'qitish texnologiyalari

O'qitishni individallashtirish va differensiallashtirish mohiyati. Psixologik-pedagogik tashhis (diagnostika) individallashtirish va differensiallashtirishning asosidek. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda individallashtirish va differensiallashtirish texnologiya-modulli o'qitish texnologiyasining o'rni. Iqtisodiy fanlarni modulli o'qitish texnologiyasi asosida o'tkazish. Modulli o'qitish texnologiyasi mazmunini tanlash.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy ta'limda innovatsion texnologiyalar

Ta'lim tizimida pedagogik va innovatsion texnologiyalarning vujudga kelishi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi. Ta'limni raqamlashtirish jarayoni. Pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari. G'oyaviylik xususiyati. Tizimlilik xususiyati. Boshqaruvchanlik xususiyati. Samaradorlik xususiyati. Qayta takrorlana olish xususiyati. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tushunchasiga berilgan ta'riflar va ularning tahlili.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida masofaviy o'qitishni joriy etish

Masofaviy ta'lim xaqida tushuncha. Masofaviy o'qitishning an'anaviy o'qitish shakllaridan farqlanishi. Masofaviy o'qitish o'qituvchining vazifalarini kengaytirishi va yangilashi xaqida. O'qitilayotgan kurslari doimo takomillashtirish, ijodiy aktivligini yuqorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovatsiyalarga mos bilim jarayonini muvofiqlashtirishi zarurligi xaqida. Masofaviy o'qitishni ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta'sir etishi lozimligi xaqida. Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy o'qitish nazorati. Masofaviy o'qitishning afzalliklari.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish metodikasi

Hozirgi kunda mutaxassislik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shakl, metodlari, vositalari. Mutaxassislik fanini o'qitishda zamonavny pedagogik texnologiyalardan foydalanish shart sharoitlari. Mutaxassislik fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning zaruriyati, o'ziga xosligi. Mutaxassislik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi.

Mutaxassislik fanini o'qitish jarayoniga ta'lim texnologiyasini tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari. Interfaol metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari. Interfaol metodlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari. Interfaol metod samaradorlik omillari. Interfaol metodlarning maqsadi. Interfaol mashg'ulotlar turlari. Interfaol metodlarning bosqichlari. Interfaol metod tushunchasi va ularning turlari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Interfaol metodlar tuzilmasi. Interfaol o'qitish va ta'limni samarali tashkil etish.

Auditoriyadan tashqari sharoitda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish

Darsdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, respublikamiz hududlari talablari asosida tashkil etish. Auditoriyadan tashqari sharoitda ta'lim muassasalari to'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlaridan habardor qilib turish, ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilishning muhimligini anglash. Talabalarda darsdan tashqari vaqtlarida turli to'garaklarga a'zo bo'lishini ta'minlash. (estetik ta'lim, sayyohlik yo'nalishi bo'yicha, ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha, talabalarni ma'naviy, ahloqiy yunalish buyicha, huquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha, texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha, iqtidorli va iste'dodli yoshlar, iqtisodiy ta'lim).

Oila, mahalla va ta'lim muassasasining tarbiyaviy ishlar bo'yicha hamkorligi

Oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirish yuzasidan pedagogning faoliyati, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini vazifalari, ot-onalar va o'quv yurti bilan olib boradigan tarbiyaviy ishning ommaviy shakllari. Yoshlar ittifoqining tashkil qilinishi. "Oila, mahalla va ta'lim muassasasining hamkorligi" konsepsiyasi yoshlarni mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda muhimligini o'rgatish. Oilaning yuksak

tarbiyaviy imkoniyati, shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ota-onalar bilan ishlash shakllari va usullarini tanlash yo'l-yo'riqlari. Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish.

Shaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlari

Jamoda va jamoa orqali tarbiyalash tarbiyaning eng muhim prinsiplaridan biri ekanligi. Sog'lom jamoa har bir shaxsning qiziqishlari va talablarini, uning individual xususiyatlarini hisobga olishi. Jamoa – bu odamlarning biror bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo'lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy formasi. Tarbiyalovchi jamoda pedagogik rahbarlik yordamida o'zaro mas'uliyat (ishchanlik) munosabatlari vaziyatiga emas, balki insonparvarlik munosabatlarini ham vujudga keltirishi. Pedagogik ishlarning butun mohiyati jamoalarning tashkiliy jixatdan shakllantirishga qaratilishi. O'zini – o'zi boshqarish organlari orqali jamoaning puxta, bir maqsadga qaratilganligi va sarmazmun hayoti tashkil etilishi.

Jamoda shaxsni tarbiyalash shakllari va usullari

Jamoda va jamoa orqali shaxsni tarbiyalash tarbiyaning eng muhim tamoyillaridan biri ekanligi. Jamoa odamlarning biror-bir muayyan ijtimoiy ahamiyati bo'lgan faoliyat asosida birlashuvlarining tashkiliy shaklidir.

Pedagogning vazifasi o'zini boshqara oladigan jamoani vujudga keltirish. Jamoda legal va nolegal liderlarni ajratib olish. Jamoda shaxsni tarbiyalashda yakka tartibda yondashish, yondashishni maqsadga qaratilganligi, shaxs haqida tushuncha, shaxsni tarbiyalashda muhitning roli, jamoda shaxsni tarbiyalash usullari, shaxsni shakllantirishning tamoyillari. O'quv – bilish faoliyati bilan bog'liq istiqbollar jamoa rivojlanishining barcha darajalarida muhimligi. "Ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi" dialogidan voz kechish va "Ta'lim beruvchi – guruh – ta'lim oluvchi" ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tish.

Ta'limda kredit-modul tizimi

Kredit-modul tizimi tamoyillari. Kredit ta'limning o'lchov birligi. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim. Talabalarning mobilligini kuchaytirish. Oliy ta'lim tizimida talabalar o'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. O'quv dasturda fanlarning saralanishi. Kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholanishi (baholar konvertatsiyasi).

Oliy ta'lim jarayonida pedagogik metodlarni qo'llash

Hozirgi zamon o'qitish vositalarining yaratilishi, tavsifnomasi. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari. Ta'limiy fikrlashni rivojlantirish. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim berish uslublari. Amerikacha va inglizcha munozara. Kichik guruhlariga bo'lib ishlash, debatlar, bahs munozaralarni tashkil etish usullari. O'quv mashg'ulotlarni aniq yo'naltirilgan savollar asosida olib borish uslubi. Guruhlarni juftlik yoki kichik guruhlariga bo'lib ta'lim o'tishi uslubi. Ta'lim jarayonida modellashtiruvchi o'yinlarni qo'llash.

Ta'lim nazariyasi. Ta'lim metodlari. Ta'lim tamoyillari

Didaktika-pedagogikaning ta'lim nazariyasi va amaliyoti asoslarini o'rgatuvchi bo'lim. Ta'limga yangicha yondashish. Ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish g'oyasi. Ta'limning

jarayonliligi. Ta'lim metodi, ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liqligi. Metodlarni ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyalariga qarab tanlash. Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlarini ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liqligi. Ta'lim vositalari. Didaktik o'yinlar.

O'quv-tarbiya jarayonlarida kreativ-ijodiy texnologiyalarni qo'llash

O'quv mashg'ulotlarida kreativ-ijodiy texnologiyalarni qo'llash zaruriyati. Kreativ – ijodiy texnologiyalarni qo'llashda o'quv maqsadini belgilash va muvofiqlikni ta'minlash. O'quv-tarbiya jarayonlarida kreativ-ijodiy texnologiyalarini qo'llashda pedagog maxoratining o'рни va roli. Zamonaviy innovatsion kreativ texnologiyalarning maqsadga muvofiqligini belgilash omillari. Kreativ texnologiyalarni tanlashda vaqt menejmenti talablari va mexanizmlari. Kreativ texnologiyalarni qo'llashda pedagog va talabalarni psixologik xususiyatlarini hisobga olish. Nostandart - kreativ g'oyalarning yaratilishi, shaxs tomonidan borliqni idrok qilinishi.

Tadqiqotlarning ilmiy-texnik va iqtisodiy samaradorligi

Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimidagi hozirgi yo'nalishlari. Xorijiy davlatlardagi bakalavr va magistrnlarni tayyorlashni boshqarish tajribasi. Xalqaro hamkorlik va bitimlar. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish. Xorijiy oliy ta'lim muassasasida tijorat faoliyati. Kredit-modul tizimiga asoslangan xorijiy oliy ta'lim. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarini moliyalashning o'ziga xos jihatlari.

Ta'lim muassasasining iqtisodiy faoliyatini liberallashtirish

Oliy ta'lim muassasalarining rivojlantirishda budjetdan tashqari mablag'lari. Oliy o'quv yurti muassasalarini tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish. Ta'lim sohasida soliq siyosatini rivojlantirish. Ta'lim muassasasining budjetdan tashqari moliyaviy mablag'lari. Ta'lim muassasalarini budjetdan tashqari faoliyatini boshqarish. Ta'lim sohasida kreditlar olish. Ta'lim budjeti va monitoring tushunchalari. Ta'lim muassasasini moliyalash tartibi. Ta'lim muassasasini moliya bo'limlarining faoliyati.

Muammoli ta'limning mohiyati

Muammoli vaziyat va masalalar turlari. Muammoli ta'limni tashkil etishda "6 shlyapa" texnologiyasidan foydalanish. Muammolarni yechishga qaratilgan organayzerlar. Differensial ta'lim ta'riflari va uning ahamiyati. Mazmun buyicha differensiatsiyaning turlari. Differensial ta'limni tashkil etishning shartlari. Inklyuziv ta'lim. Komandada ishlash texnologiyasining tuzilishi. Hamkorlikda ishlash shakllari: mohiyati va mazmuni. O'yin texnologiyalarning bosqichlari. "Zigzag" texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish.

Evristik ta'lim talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish omili sifatida

Zamonaviy didaktikada evristika asoslari. Evristik ta'limni shakllanish tarixiy bosqichlari. Ta'lim paradigmalarini tahlil qilish. Evristik ta'lim faoliyatining mazmuni. Evristik qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasi. Dialog asosidagi evristik ta'lim tizimi. Evristik ta'limning prinsiplari.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar

Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish omillari. Inklyuziv ta'limning mohiyati, integratsion ta'limdan farqi. Imkoniyati cheklangan bolalar turlar. Inklyuziv ta'limning xalqaro va respublika miqyosida huquqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi resurs o'qituvchi va ijtimoiy pedagogning vazifalari. Maqsadga muvofiq olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari.

Bilimlar iqtisodiyotida axborot resurslari innovatsion rivojlanishining asosiy omili sifatida

Bilimlarni boshqarishda axborot texnologiyalardan foydalanish. Bilimlarni boshqarishning funksiyalari va metodlari. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda axborot texnologiyalardan foydalanish. Yangi texnologiyalarni joriy etishda innovatsion rivojlanishning muvaffaqiyat omillari. Yangi texnologiyalarni joriy etish orqali kompaniyalarning muvaffaqiyatli innovatsion rivojlanish misollari. Bilimlarni boshqarishning komponentlari: aksiologik komponent, texnologik komponent, shaxsiy-ijodiy komponent.

Baholash mezoni

Eng yuqori ball – 100 ball

Saralash ball – 56 ball

56 balldan – 70 ballgacha (70 – 55%) – qoniqarli

71 balldan – 85 ballgacha (71 – 85,9%) – yaxshi

86 balldan – 100 ballgacha (86 – 100%) – a'lo

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-T.:O'zbekiston, 2017.- 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2019 yil 8 oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 27 iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori. 2017 yil 22 may.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 21 yanvar, № 15 (7517)

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 22 yanvar, № 16 (7518)

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 23 yanvar, № 17 (7519)

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: Ma'naviyat. – 2021. – 278 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: O'zbekiston. 2021 yil, 464-b.

13. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

14. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

15. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : O'zbekiston, 2017. – 488 b.

16. Heather Fry., Steve Ketteridge., Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Third edition. This edition published 2009 by Routledge, Inc. p 525.

17. Greg Light, Roy Cox, Susanna Calkins. Learning and Teaching in Higher Education. Los Angeles, London, New Dehli. 2014, 341 p.

2. Ilmiy adabiyotlar

1. Акимова О.Б., Исмаилова З.К., Махсудов П.М., Уткина С.Н. Методика профессионального обучения. – Т.: Navro'z, 2020.-146 с.

2. Hakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi - T.: Iqtisodiyot, 2021, 200-bet.

3. Иноятлов У.И., Муслимов Н.А., Рўзиева Д.И., Усмонбоева М.Н. Педагогика: но педагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарслик. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 256 бет.

4. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Н., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув методик қўлланма. / – Тошкент, 2015. – 120 б.

5. Креативная педагогика. Методология, теория, практика. под ред. д. т. н., проф. В. В. Попова, акад. РАО Ю. Г. Круглова. - 4-е изд. — М. :

- БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014, - 322 с.
6. Tojiboeva D., Yoldoshev A. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2018. -568 б.
7. Хакимова М.Ф., Лутфуллаева Н.Х., Абдуллаева Р.М. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: Iqtisodiyot, 2019.-138 б.
8. Исамитдинов С., Мадг‘офурова Д. ва бошқалар. Психология ва педагогика асослари. – Т.: Фан ва технология, 2014. -116 б.
9. Хаджабоев А, И.Хусанов. Касбий таълим методологияси. –Т.: Фан технология. 2006. -175 бет.
10. Чичерина Я.И., Нуркелдиева Д.А., Якубжанова Д.Я. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 128 б
11. Атамуратова ва бошқ. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. –Т.: Янги аср авлоди. 2008. – 180 б
18. Асқаров М, Хайитбоев М, Нишонов М. Педагогика. Дарслик. -Т.: Талқин, 2008. -289 б.
19. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Фан, 2007. - 143 б.
20. Ирматов Х, Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. Дарслик. -Т.: Фан ва технология, 2008. -288 бет.
21. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –54
22. Michael J. Feuer., Robert E. Floden., Naomi Chudowsky., Judie Ahn. Evaluation of Teacher Preparation Programs. Copyright 2013 by the National Academy of Education. All rights reserved.Inc.p120. <http://www.naeducation.org>.
23. Pauline Davis.,Lani Florian. Teaching Strategies and Approaches for Pupils with Special Educational Needs: A Scoping Study. Copyright © Queen’s Printer 2004, Inc.p 87.
24. Холиқов А.А. Педагогик маҳорат асослари. Т.; Иқтисод. Молия, - 2009. -418 б.

3. Интернет сайтлари

1. www.gov.uz– Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
2. www.lex.uz–Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
4. www.tdpu.uz
5. www.pedagog.uz
6. www.psychology.uz
7. www.nutq.intal.uz
8. www.psychology.net.ru